

**«Alliance» mobil banking tizimi orqali mijozlar – jismoniy shaxslarga
xizmatlar ko’rsatish uchun
Ommaviy shartnoma-oferta**

Mazkur hujjat “ASIA ALLIANCE BANK” ATB (bundan buyon mantda – “Bank”) rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi va Bank mijozlari – jismoniy shaxslarga (bundan buyon mantda – “Mijoz”) «Mobil banking - Alliance» tizimi orqali xizmatlar taqdim qilinishida xizmat ko’rsatish standart shartlarini va tartibini belgilaydi.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (O’zR FK) 369-moddasi 2-bandiga muvofiq, quyida tavsiflangan «Mobil banking - Alliance» tizimi shartlari qabul qilingan va unga ulangan holatda, mazkur ofertani akseptlaydigan mijoz – jismoniy shaxs Buyurtmachiga aylanadi (O’zR FK 370-moddasi 4-qismiga muvofiq, ofertani akseptlash mazkur ofertada qayd etilgan shartlarda shartnoma tuzish bilan teng kuchlidir), Bank va Buyurtmachi/Mijoz esa birgalikda – mazkur Shartnomaning Taraflariga aylanadi.

Yuqorida qayd etilganlar asosida mazkur ommaviy oferta matnini diqqat bilan o’qing va Bank tariflari bilan tanishib chiqing. Agar ofertaning biron-bir bandiga rozi bo’lmasangiz, Bank Sizga ushbu xizmatlardan foydalanishni rad etishni taklif qiladi.

1. ATAMALAR

1.1. **Oferta** – mazkur hujjat «Mobil banking - Alliance» tizimi orqali jismoniy shaxsga xizmatlar ko’rsatish uchun Ommaviy shartnoma-oferta.

1.2. **Ofertani akseptlash** – Mijoz tomonidan mazkur Ofertaning 3.1-bandida qayd etilgan harakatlar amalga oshirilishi orqali ofertaning to’liq va so’zsiz qabul qilinishi.

1.3. **Buyurtmachi / Mijoz** – oferta akseptlanishini amalga oshirgan va shu orqali tuzilgan oferta shartnomasi bo’yicha Bank xizmatlari buyurtmachisi hisoblangan shaxs.

1.4. **Oferta shartnomasi** – «Mobil banking - Alliance» tizimi orqali mijoz – jismoniy shaxsga xizmatlar ko’rsatish uchun Bank va Mijoz o’rtasida ofertani akseptlash orqali tuzilgan shartnoma (bundan buyon matnda – “Shartnoma”).

1.5. **«Mobil banking – Alliance» tizimi** (bundan buyon matnda – “Tizim”) – Mijoz ro’yxatdan o’tkaziladigan mobil telefonlar va Internet-brauzer orqali Bank mijozlari – jismoniy shaxslar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy olish uchun mo’ljallangan bank ilovasi.

1.6. **Web-Sayt** – Internet tarmog’ida Bankning rasmiy web-sayti: www.aab.uz.

1.7. **«Alliance» web-interfeysi** – Mijoz web-brauzer orqali Tizim bilan o’zaro hamkorlik qiladigan mablag’lar jamlamasi.

1.8. **«Alliance» mobil ilovasi** – Mijoz Tizim bilan o’zaro hamkorlik qiladigan Mobil qurilmaning operasion tizimiga o’rnataladigan dasturiy mahsulot.

1.9. **Login** – ro’yxatdan o’tkazishda Mijoz tomonidan qayd etilgan mobil telefon raqami shaklidagi foydalanuvchi nomi.

1.10. **Parol** – Mijoz loginini tasdiqlash uchun mo’ljallangan sirli so’z yoki belgilar to’plami.

1.11. **Biryo’la avtorlashtirish kodi** – Tizimda ro’yxatdan o’tkazishda qayd etilgan mobil telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabarnoma shaklida beshta belgidan iborat raqamli belgilar to’plami. Avtorlashtirish kodi Tizimga kirish uchun talab qilinadi.

1.12. **Avtorashtirish** – Tizimda ishslash uchun Mijoz huquqlarini tekshirish, tasdiqlash va taqdim qilish jarayoni.

1.13. **Plastik karta** – «ASIA ALLIANCE BANK» ATB tomonidan chiqarilgan, Mijozning maxsus so’mdagi kartochka hisobvarag’idan foydalanish imkonini beradigan, naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshiriladigan to’lov kartasi.

1.14. **Bank hisobvarag’i** – jamg’arma depozit hisobvarag’i, muddatli depozit hisobvarag’i, qarz hisobvarag’i, talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’i, maxsus so’mdagi kartochka hisobvarag’i va boshqa hisobvaraqlar;

1.15. **Jamg’arma depozit hisobvarag’i** – Mijozlarning davriy badallari asosida

shakllanadigan, muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun jamg'ariladigan va ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan yoki shartnomalarbekor qilinganidan so'ng qaytariladigan mablag'lar hisobi yuritiladigan hisobvaraq;

1.16. **Muddatli depozit hisobvarag'i** – Mijozlarning shartnomada qat'iy kelishilgan muddatga to'langan mablag'lari hisobi yuritiladigan hisobvaraq;

1.17. **Qarz hisobvarag'i** – Mijozlarga belgilangan tartibda berilgan kreditlar hisobi yuritiladigan hisobvaraq;

1.18. **Talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i** – Mijozning birinchi talabi bo'yicha beriladigan yoki o'tkaziladigan Mijoz mablag'lari hisobi yuritiladigan hisobvaraq;

1.19. **Elektron hamyon** – Mijozning faqat «Alliance» tizimi orqali boshqariladigan mablag'lari hisobi yuritiladigan hisobvaraq.

1.20. **Maxsus so'mdagi kartochka hisobvarag'i** – Bank tomonidan Mijozga bank kartasi bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ochiladigan maxsus so'mdagi kartochka hisobvarag'i.

1.21. **Xalqaro plastik kartasi** – «ASIA ALLIANCE BANK» ATB tomonidan chiqarilgan, Mijozning chet el valyutasida maxsus kartochka hisobvarag'idan foydalanish imkonini beradigan, naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshiriladigan chet el valyutasidagi karta.

1.22. **Uchinchi shaxs** – Shartnomaga aloqasi bo'limgan jismoniy shaxs.

2. BANK TOMONIDAN MIJOZGA TAQDIM QILINADIGAN XIZMATLAR UMUMIY SHARTLARI

2.1. Tizimga ulanish uchun Mijoz Bankda maxsus so'mdagi kartochka hisobvarag'iga, Android 5.0 yoki iOS 11 dan quyi bo'limgan operasional tizimli mobil telefonga va O'zbekiston Respublikasi operatorining Uzcard/Humo tizimi SMS-xabarnoma xizmatiga ulangan amaldagi uyali aloqa raqamiga ega bo'lishi kerak.

2.2. Tizimda operasiyalarni o'tkazish uchun Mijoz Play Market/AppStore bilan «Alliance» mobil ilovasini yozib olishi va o'rnatishi kerak.

2.3. Mijozning Tizimda ro'yxatdan o'tkazilishi «Alliance» mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi. Tizimda ro'yxatdan o'tkazish uchun telefon raqamini, ism-sharifi va familiyasini kiritish, shuningdek Tizimga kirish uchun parolni o'rnatish kerak.

2.4. Bank tomonidan shartnomalar doirasida xizmatlar taqdim qilinishi tun-kun amalga oshiriladi, faqat Bankning operasional kuni davomida taqdim qilinadigan bank xizmatlari bundan mustasno.

2.5. Tizim Bank mulki hisoblanadi.

2.6. Tizim orqali taqdim qilinadigan bank xizmatlari shartlari Tizimda belgilanadi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Shartnomalar standart shaklda belgilangan va Mijoz tomonidan Tizim mobil ilovasini o'rnatishda ushbu shartlarga rozilik bildirish orqali qabul qilinishi mumkin. Tizimda ro'yxatdan o'tish Mijozning umuman mazkur Shartnomaga qo'shilishini anglatadi. Shartnomalar Tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi.

3.2. Tizim yordamida Mijoz Tizimdagisi joiz elektron operasiyalarni amalga oshirishga haqli.

3.3. Ushbu orqali Taraflar quyidagilarni tasdiqlaydilar va ularga rozilik bildiradilar:

3.3.1. Bank Mijoz tomonidan Tizimdan foydalanib bajarilgan to'lov operasiyalari mazmuni va/yoki rasmiylashtirilishi to'g'riliği uchun javobgar bo'lmaydi;

3.3.2. Bank Mijoz tomonidan to'lov rekvizitlari noto'g'ri ko'rsatilgan holatda Tizim orqali bajarilgan to'lovlar qaytarilishi majburiyatini olmaydi.

3.4. Mijoz Shartnomaga qo'shilish va Tizimga ulanish orqali quyidagilarni tasdiqlaydi:

3.4.1. Mijoz tomonidan Bank Tariflari, Tizimda xizmatlarni taqdim qilish shartlari, ro'yxatdan o'tkazish shartlari, Tizimning ish rejimi, Shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan holatda ehtimoliy xavf-xatarlar, shuningdek Taraflar huquqlari va majburiyatlar

hamda ularning javobgarligi to'g'risida axborot olingan.

3.5. Mijoz Tizimdan foydalanish orqali amalga oshirilgan operasiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Tizim qo'llanilishi bilan bog'liq nizo yuzaga kelgan holatda Bank tomonidan sudda dalil-isbotlar sifatida taqdim qilinishi mumkinligini e'tirof etadi.

3.6. Tizim Bankda Mijozga an'anaviy xizmat ko'rsatishni istisno qilmaydigan Bank va Mijoz o'rtasida qo'shimcha axborot aloqa kanali hisoblanadi. Agar Taraflar o'rtasida o'zga kelishuvlar bo'lmasa, har bir muayyan holatda xizmat ko'rsatish shakli Mijoz tomonidan tanlanadi.

4. BANK HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

4.1.1. Tizimning uzlusiz ishlashini ta'minlash;

4.1.2. Tizim ishlashi masalalari bo'yicha Mijozga konsultasiya berish va nizoli vaziyatlarni hal qilishda ko'maklashish;

4.1.3. qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini ishlash va ularning maxfiyligini ta'minlash.

4.2. Bank quyidagilarga haqli:

4.2.1. bir tomonlama tartibda Bank Tariflariga va/yoki Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish.

Mijoz kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga rozilik bildirmagan holatda, Mijoz Tizimda o'z akkauntini (hisobga olish qaydnomasini) olib tashlash orqali Shartnomani bekor qilishga haqli.

Yangi tahrirdagi Shartnoma va/yoki Tariflar www.aab.uz saytida joylashtirilgan kundan e'tiboran 10 (o'n) kalendar kunidan so'ng Mijoz Tizimdan foydalanishni davom ettirayotgan holatda, yangi tahrirdagi Shartnoma va/yoki Tariflar Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va xizmat ko'rsatish uchun haq undiruvi yangi Tariflarga asosan amalga oshiriladi;

4.2.2. Mijozlar uchun marketing aksiyalarini o'tkazadi yoki qonun-qoidalarga rioxaliga qilish dasturlarini amalga oshiradi, shu jumladan Bank tomonidan Hamkorlar / Ta'minotchilar bilan birligida tashkil qilinadigan ushbu aksiyalarda yoki qonun-qoidalarga rioxaliga qilish dasturlarida ishtiroy qilish to'g'risida takliflarni tarqatish maqsadida va aksiyada nazarda tutilgan sovrinlar / bonus yutuqlarini olish maqsadida;

4.2.3. ijtimoiy tarmoqlarda o'z reklama-axborot materiallarini tarqatish, mijozlar e'tiboriga yetkazish maqsadida reklama materiallarini va boshqa axborotni targ'ib qilish.

4.2.4. Quyidagi holatlarda Mijozga Tizimdan foydalanib xizmat ko'rsatilishini to'xtatib qo'yish:

- Mijoz tomonidan Shartnoma shartlariga rioxaliga qilinmagan holatda;
- nizoli vaziyatlar vaqtida;
- Mijoz tomonidan taqdim qilinadigan ma'lumotlar operasiyalarni amalga oshirish uchun yetarli bo'limgan holatda;
- Tizim xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan avariyyaviy va reglament ishlarini bajarish maqsadida, Mijoz ushbu ishlar amalga oshiriladigan muddatlar to'g'risida xabardor qilingan holda;
- Mijoz tomonidan mazkur Shartnoma shartlari va/yoki amaldagi qonun hujjatlarini talablari buzilgan holatda va/yoki Mijozning biron-bir tarzda firibgarlik operasiyalarida va/yoki jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha operasiyalarda ishtiroy qilayotganligiga shubha qilingan holatda, shuningdek amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda Bank vaziyatlar aniqlangungacha Tizimdan foydalanishni bir tomonlama tartibda vaqtincha blokirovka qilishga yoki Mijozning Bankka ma'lum bo'lgan har qanday manzili bo'yicha tegishli bildirish xati yuborish va/yoki Mijozning telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuborish orqali istalgan vaqtda Shartnomani bekor qilishga haqli.

5. MIJOZ HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Mijoz quyidagi majburiyatlarni oladi:

5.1.1. Bankda maxsus so'mdagi kartochka hisobvarag'iga, Android 5.0 yoki iOS 11 dan quyi bo'limgan operasion tizimli mobil telefonga va O'zbekiston Respublikasi operatorining Uzcard/Humo tizimi SMS-xabarnoma xizmatiga ulangan amaldagi uyali aloqa raqamiga ega bo'lish;

5.1.2. Shartnoma shartlarini o'z vaqtida va vijdanan bajarish;

5.1.3. axborot xavfsizligini ta'minlash choralariga rioya qilish;

5.1.4. Tizimdan qonunga xilof maqsadlarda, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish uchun foydalanmaslik;

5.1.5. «Alliance» mobil ilovasidan faqat shaxsiy maqsadlarda foydalanish hamda Tizimdan va Tizimga ro'yxatdan o'tkazishda kiritilgan uyali aloqa telefon raqamidan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga bermaslik;

5.1.6. Tizimdan foydalanish uchun ishlatiladigan login, parolni va SMS-xabarnoma orqali yuborilgan maxfiy kodni sir saqlash;

5.1.7. to'lov rekvizitlarini, aynan esa: oluvchining hisobvarag'ini, telefon raqamini, kommunal xizmatlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni va h.k. ma'lumotlarni to'g'ri kiritish;

5.1.8. xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali pul mablag'larini olish / yuborish uchun xizmatlardan foydalanishga doir barcha kerakli axborotni taqdim qilish;

5.1.9. mobil telefon yo'qotilgan holatda, darhol Bankka yozma shaklda murojaat qilish orqali xizmatlarni vaqtinchalik blokirovka qilish to'g'risida Bankni xabardor qilish;

5.1.10. uchinchi shaxslar tomonidan «Alliance» mobil ilovasidan foydalanish uchun rekvizitlardan noqonuniy foydalanishga doir faktlar yoki shuhbalar to'g'risida, shu jumladan «Alliance» mobil ilovasiga ulangan mobil telefon raqami o'zgartirilganida darhol Bankni xabardor qilish.

5.1.11. Bankka quyidagilarni o'z vaqtida to'lash / o'rnini to'ldirish:

- komissiyalar, Bank Tariflariada nazarda tutilgan boshqa summalar;
- Tizim ishida to'xtalishlar yuz bergan holatda Bank tomonidan kartaga / elektron hamyonga xato o'tkazilgan summalar.

5.2. Mijoz quyidagilarga haqli:

5.2.1. Bank xodimlaridan Shartnoma shartlarini bajarish masalalari bo'yicha kerakli axborot olish;

5.2.2. Tizimda joiz elektron operasiyalarni amalgalash;

5.2.3. Tizimdan Bankdan olinadigan axborotni ko'rib chiqish uchun foydalanish;

5.2.4. istalgan paytda Tizimda o'z akkauntini (hisobga olish qaydnomasini) olib tashlash orqali Shartnomani bekor qilish.

6. TO'LOV TARTIBI

6.1. Tizimda amalgalash operasiyalarni uchun to'lov miqdori Bank Tariflariga asosan belgilanadi.

6.2. Bank Mijozni Tariflar va Shartnoma shartlari o'zgarishlari va qo'shimchalari to'g'risida, agar qonun hujjatlarida yoki nazorat qiluvchi organlar hujjatlarida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, bunday o'zgarishlar va qo'shimchalar kuchga kiritilgungacha 10 bank kunidan kechikmagan holda, Bank bo'limmalaridagi stendlarda, www.aab.uz rasmiy saytida yoki Bankning tanloviga ko'ra boshqa usulda kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar to'g'risida axborot joylashtirish orqali xabardor qiladi.

6.3. Oferta shartnomasiga asosan Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun komissiya haqi Bank tomonidan maxsus so'mdagi kartochka hisobvarag'i / Bank hisobvarag'i bo'yicha operasiyalarni amalgalashishiga qarab, Mijozning maxsus so'mdagi kartochka hisobvarag'i / Bank hisobvarag'idan pul mablag'larini akseptsiz chegirib qolish orqali olinadi.

7. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

7.1. Taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgar bo'ladilar.

7.2. Shartnoma qoidalariga riosa qilish Bank va Mijoz uchun majburiy hisoblanadi.

7.3. Bank quyidagi holatlarda:

7.3.1. Mijoz tomonidan Shartnomada nazarda tutilgan talablarga riosa qilinmagan holatda Mijoz uchun salbiy oqibatlar (shu jumladan, unga yetkazilgan zararlar) uchun;

7.3.2. hisobvaraqlar va/yoki ular bo'yicha amalga oshirilgan operasiyalar to'g'risidagi axborot Bank aymbisiz uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lган holatda;

7.3.3. Mijoz tomonidan Tizimdan foydalaniб xato to'lov amalga oshirilganligi uchun (oluvchining rekvizitlari noto'g'ri kiritilganligi tufayli);

7.3.4. Bankka bog'liq bo'lмаган vaziyatlar bo'yicha Tizimdan foydalanishni taqdim qilish imkoniyati bo'lмаган holatda;

7.3.5. aloqa liniyasining sifati va texnik holati uchun;

7.3.6. mobil operatorlar tarmoqlarida va internet-provayderlar servislarida yuzaga keladigan kechikishlar va ishdagi to'xtalishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

8. FORS-MAJOR VAZIYATLARI

8.1. Taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi yengib bo'lmas kuch vaziyatlari (fors-major vaziyatlari) oqibatida yuzaga kelgan holatda, bunday majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar.

8.2. Engib bo'lmas kuch vaziyatlari deyilganida Taraflar Shartnoma imzolanganidan so'ng urush va urush harakatlari, tabiiy ofatlar, Taraflarning bevosita Shartnoma predmetiga tegishli faoliyatini taqiqlovchi yoki chekllovchi uyali aloqa operatorlari harakatlari, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va/yoki ijroiya hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki harakatlari kabi kutilmagan va oldini olib bo'lmaydigan favqulodda xususiyatlari hodisalar natijasida yuzaga kelgan vaziyatlarni tushunadilar.

8.3. Taraflar korxonalar – kommunal xizmatlar va aloqa xizmatlari ta'minotchilarining Taraf tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijrosi mumkin bo'lmasligiga olib keladigan harakatlari va harakatsizligini, Bank Tizimlari ishidagi texnik to'xtalishlarni ham fors-major vaziyatlari kiritadilar.

8.4. Shartnomaning 8.2 va 8.3-bandlarida qayd etilgan vaziyatlari oqibatida Shartnoma bo'yicha majburiyatlari ijrosi mumkin bo'lmasligiga olib kelgan Taraf boshqa Tarafni darhol yozma shaklda xabardor qilishi va boshqa Tarafning talabiga asosan fors-major vaziyatlari boshlanganligi va/yoki to'xtaganligini tasdiqlovchi dalil-isbotlarni taqdim qilishi kerak. Vakolatlari organ tomonidan berilgan yozma shakldagi hujjatlar qayd etilgan fors-major vaziyatlari boshlanganligi va davom etish muddatini tasdiqlovchi dalil-isbot bo'lib xizmat qiladi.

8.5. Shartnomaning 8.2 va 8.3-bandlarida nazarda tutilgan holatlarda Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijro muddati bunday vaziyatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda keyinga suriladi.

8.6. Engib bo'lmas kuch vaziyatlari ketma-ket 30 kundan ko'proq davom etgan holatda, Taraflarning har biri mazkur Shartnomani bekor qilishga haqli. Bank qayd etilgan holatda shartnomanini bekor qiladi va Bank bo'linmalaridagi stendlarda, www.aab.uz rasmiy saytida yoki Bankning tanloviiga ko'ra boshqa usulda shartnomanini bekor qilish to'g'risida tegishli xabarnomani joylashtiradi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

9.1. Shartnoma Tizimda Mijoz ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va muddatsiz hisoblanadi.

- 9.2. Shartnoma Mijoz tomonidan istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.
- 9.3. Shartnoma quyidagi holatlarda Bank tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin:
 - Bank tomonidan Tizim orqali Mijozlarga xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinishi;
 - Mijoz tomonidan Shartnomada belgilangan shartlar va Tizim orqali bank xizmatlarini taqdim qilish shartlari buzilishi;
 - terroristik yoki boshqa jinoiy faoliyatda ishtirok qilish yoki ishtirok qilishda shubhalanish to'g'risida amaldagi qonun hujjatlariga asosan olingan ma'lumotlar mavjudligi, shuningdek Mijozning shubhali va/yoki gumanli operasiyalari aniqlanishi;
 - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha nizolar muzokaralar orqali hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan holatda nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan vakolatli sudlarda ko'rib chiqiladi.

10.2. Shartnoma qismlaridan biri qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haqiqiy emas deb e'tirof qilinsa, agar amaldagi qonun hujjatlari normalarida o'zgacha nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu fakt avtomatik ravishda umuman butun Shartnoma va/yoki uning boshqa qismlari haqiqiy emas deb e'tirof qilinishiga olib kelmaydi.

11. BOSHQA SHARTLAR

- 11.1. Mazkur Shartnoma davlat va rus tillarida tuzilgan.
- 11.2. Mazkur Shartnomada hal qilinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan tartibga solinadi.

12. BANK YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI

**«ASIA ALLIANCE BANK» ATB
Manzili:**

Toshkent sh., Yashnobod tumani,
Maxtumquli ko'chasi, 2A.

Bank rekvizitlari:
h/r: 298020000001095001
MFO: 01095 STIR:207018693
OKED: 64190 OKPO:22921172

Imzo: _____
M.O'.